



2025-yil "Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" va 5-iyun xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuniga bag'ishlanadi

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L – VOHA EKOSISTEMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

2025-yil 5-6-iyun





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
BUXORO VILOYAT EKOLOGIY, ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA
IQLIM O‘ZGARISHI BOSHQARMASI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
GREEN UNIVERSITY - MARKAZIY OSIYODA ATROF MUHIT VA IQLIM
O‘ZGARISHINI O‘RGANISH UNIVERSITETI
KAZAN FEDERAL UNIVERSITETI
TUYMEN DAVLAT UNIVERSITETI
OMSK DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

5-iyun xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuniga bag‘ishlanadi

**IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA CHO‘L – VOHA
EKOSISTEMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

2025-yil 5-6-iyun

BUXORO – 2025

2025-yil 5-6-iyun kunlari Buxoro davlat universitetida 5-iyun Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuniga bag'ishlab "Iqlim o'zgarishi sharoitida cho'l – voha ekosistemi: muammolar, yechimi" mavzusidagi xalqaro miqyosda konferensiya bo'lib o'tadi.

Dasturiy qo'mita tarkibi:

F.I.O.	Ilmiy darajasi va unvoni	Lavozimi
O.X.Xamidov	i.f.d., prof.	Rektor
R.G'.Jumaev	b.f.f.d. (PhD), dos.	O'quv ishlar bo'yicha prorektor
K.H.Samiev	f-m.f.doktori (DSc), prof.	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
A.T.Jo'raev	i.f.n., dots.	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor
O'.U.Rashidov		Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
J. Sh. Nosirov		Buxoro viloyat Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i
B.D.Baratov		Buxoro viloyati Gidrometriologiya markazi boshlig'i
A. Tolstikov		Tyumen davlat universiteti birinchi prorektori
P.V.Bolshanik	i.f.f.d., dots	Omsk davlat pedagogika universiteti dotsenti
R.A.Ulengov	g.f.n., dos.	Kazan federal universiteti kafedra mudiri
Y. Shakirova	g.f.n., dos.	Kazan federal universiteti dotsenti
A.A.Qodirov	i.f.d. (DSc), prof.	Tabiiy fanlar va agrobixnologiya faklteti dekani
O.S.Qahhorov	i.f.d. (DSc), prof.	Ilmiy tadqiqot va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bo'lim boshligi'
Y.D.Xolov	b.f.f.d. (PhD), dos.	Ekologiya va geografiya kafedrasini mudiri

Tashkiliy qo'mita tarkibi:

F.I.O.	Ilmiy darajasi va unvoni	Lavozimi
Y.D.Xolov	b.f.f.d. (PhD), dos.	Ekologiya va geografiya kafedrasini mudiri
G.T.Zaripov	t.f.f.d. (PhD), dos.	Ilmiy tadqiqot va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi
A.E.Xolliev	b.f.d. prof.	Ekologiya va geografiya kafedrasini professori
Y.Q.Haitov	g.f.d. prof	Ekologiya va geografiya kafedrasini professori
U.T.Norboeva	b.f.d. prof.	Ekologiya va geografiya kafedrasini professori
M.K.Ergasheva	g.f.f.d. (PhD), dots.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti
G.S.Halimova	g.f.f.d. (PhD), dots.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti
D.Q.Zaynutdinova	g.f.f.d. (PhD), dots.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti
Z.A.Boltaeva	b.f.f.d. (PhD), dots.	Ekologiya va geografiya kafedrasini dotsenti
A.A.Qodirov		Ekologiya va geografiya kafedrasini katta o'qituvchisi
A.N.Nematov		Ekologiya va geografiya kafedrasini katta o'qituvchisi

Tezislar mazmuni va undagi ma'lumotlar uchun mualliflar shaxsan mas'uldirlar.

Mamlakatlar va mintaqalarning jahon bioxilmaxilligiga o‘zaro bog‘liqligi bugungi kunda global muammolarni hal etish uchun genetik resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni taqozo etadigan muhim omildir.

Shunday qilib, globallashuv jarayonlarining ayrim o‘ziga xos xususiyatlari va ularning bioresurslarni saqlash hamda foydalanish muammosiga ta’sirini aniqlash va tizimli tahlil qilish asosida quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin:

- ✓ jahon hamjamiyatining genetik resurslarni birgalikda va muvofiqlash-tirilgan sa’y-harakatlar bilan saqlash hamda ulardan oqilona foydalanishning global strategik ahamiyati va muhimligini anglashi;
- ✓ genetik tanazzulning kuchayishi va bioxilma-xillikning kamayishi, mamlakatlar va umuman, dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda uning rolini oshirish;
- ✓ eng so‘nggi ilm-fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda, yakuniy mahsulot yaratishda bioxilma-xillik komponentlari rolini oshirish;
- ✓ bioxilma-xillik komponentlaridan cheklovsiz va erkin foydalanishni talab qiladigan sanoat ishlab chiqarishning jadal rivojlanib borayotgan tarmoqlari va agrobiznesga TMKlarni jalb etish;
- ✓ sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida taraqqiyot sur’atlaridagi tafovutning keskin oshishi;
- ✓ umumiy iqtisodiy inqiroz tufayli bioxilmaxillikni saqlash va o‘rganish uchun davlat tomonidan moliyalashtirish darajasining kamayishi va boshqalar.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki mamlakatlarning bioxilmaxillikni saqlash borasida olib boradigan barcha harakatlari ularning hududida aholi farovonligining garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Myers, N., Mittermeier, R., Mittermeier, C. *et al.* Biodiversity hotspots for conservation priorities. *Nature* 403, 853–858 (2000).
2. FAO. High Level Expert Forum-How to Feed the World in 2050, Economic and Social Development, Food and Agricultural Organization of the United Nations, Rome, Italy, 2009.
3. Мукумов И.У. Природные запасы некоторых видов *Ferula L.*, содержащих биологически активные соединения: Автореф. дис. ... канд. биол. наук. - Ташкент, 1993. – С. 40.
4. COP VI. Decision VI/24. The Hague, 2002. Appendix II.
5. COP VI. Strategic Plan for the CBD. Decisions VI/26. The Hague, 2002.

IQLIM O'ZGARISHI VA EKOLOGIK TA'SIR

Asadullayev Anvar Narzullayevich

Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro sh.

Tabiatdagi hodisalar, unda bo‘layotgan o‘zgarishlar tirik mavjudotlarning, xususan insonlarning salomatlik ko‘rsatkichlari, ularning turmush-tarzi, yashash sharoiti va boshqa jarayonlariga ta’sir etmasdan qolmaydi. Albatta, insonlarning hissiyotlariga, aqliga va tanasiga kuchli ta’sir qiladi. Demak, tabiat bilan inson o‘rtasida uzluksiz bog‘lanishni his qilgan holda atrof – muhitga bo‘lgan munosabatda har tomonloma oqilona yondashish kerak.

Iqlim o'zgarishi va ekologik ta'sir yer yuzida global salbiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda, shuningdek inson salomatligining ko'rsatkichlariga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishi insoniyatning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Bu jarayonning ta'siri global harorat ko'tarilishidan tortib, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va biotizimlarning yemirilishigacha olib bormoqda.

Iqlim o'zgarishi keng tarqalayotgan, jadal va tezlashib borayotgan jarayondir. Mutaxassis ekspertlar guruhi yer ilgari hisob - kitob qilinganidan ko'ra tezroq isib borayotganini ma'lum qilishmoqda. Yer sayyorasida umumiy haroratning ko'tarilishi atrof muhitning, ayniqsa atmosfera havosining zararlanganligini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Atmosfera havosi

tarkibida qator zararli moddalar miqdorining ko'payishi nafaqat haroratning, balki sayyoramizning barcha mintaqalarini iqlimi o'zgarishiga olib kelmoqda [1].

Issiqlik eng halokatli ob-havo hodisalaridan biridir. Okean haroratining ko'tarilishi bilan bo'ronlar kuchayib, namlanadi, bu esa bevosita va bilvosita o'limga olib kelishi mumkin. Quruq sharoitlar ko'proq o'rmon yong'inlariga olib keladi, bu esa o'z navbatida sog'liq uchun xavf tug'diradi. Suv toshqini holatlarining ko'pligi suv orqali yuqadigan kasalliklar, jarohatlar va kimyoviy xavflarning tarqalishi kengayishi ehtimoli katta. Eng zaif guruhlar, jumladan, bolalar, qariyalar, sog'lig'i yomon bo'lgan odamlar, ochiq havoda ishlaydiganlar va kam daromadli odamlar, iqlim o'zgarishining murakkab omillari tufayli yanada yuqori xavf ostida qoladilar. Ammo sog'liqni saqlash guruhlariga odamlarga iqlim o'zgarishining sog'lig'iga ta'sirini tushunishga va ularga chidamlilikni oshirishga yordam berish uchun mahalliy jamoalar bilan ishlamoqdalar va bir qancha tajribalar o'tkazmoqdalar. Shuningdek, bizning oziq-ovqat ta'minotimiz iqlim va ob-havo sharoitlariga bog'liq. Iqlim o'zgarishlari sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda erdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bugungi kunning asosiy masalasidir. Iqlim o'zgarishi ekotizimlar va organizmlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishda davom etadi.

Tabiatda sodir bo'layotgan tabiiy favqulodagi hodisalar geografik joylashuviga ko'ra qachon tirik mavjudotlarga, xususan insonlarga ta'sir etish jarayonlari mutaxassislar tomonidan chuqur o'rganib tahlil qilinmoqda.

So'nggi yillarda tirik mavjudotlar oldida turgan eng katta muammolardan biri bo'lib kelgan iqlim o'zgarishi orqaga qaytarilmaydi.

Iqlim o'zgarishini tadqiq qilish va baholash xalqaro tashkilotlarning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar orasida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo iqlim o'zgarishlari bo'yicha guruh (IPCC) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan tashkilot bo'lib, uning yuqori texnologiyali baholarini olib boradi.

Iqlim o'zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri. Bu borada o'z vaqtida choralar qabul qilmaslik va atmosferada "issiqxona gazlari" miqdorini bundan keyin ham ko'payishi oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Davlatimiz rahbarining 2024 yil 23-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to'g'risida"dagi Farmon iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va uni ijrosini ta'minlash, Parij bitimi doirasida mamlakatimiz tomonidan qabul qilingan majburiyatlarni amalga oshirishda muhim tarixiy hujjat bo'ldi.

O'zbekiston – 2030-strategiyasida belgilangan bir qator vazifalar mamlakatimizda iqlim o'zgarishlarini oldini olish hamda unga moslashishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Birgina 2018-yilning dekabr oyidan hozirgi kunga qadar Orolning qurigan tubida qariyb 2 mln gektarga yaqin maydonga saksovul, cherkes va boshqa sho'rga va qurg'oqchilikka chidamli o'simlik urug'lari sepildi va ko'chatlari ekildi.

So'nggi yillarda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryoda 1,6 gigavattli 9 ta quyosh va shamol elektr stansiyalari tarmoqqa ulandi. Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 183 megavattli 6 ta gidro elektr stansiyasi ishga tushirildi. 2030-yilga borib O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 gigavattga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Bu o'z navbatida, tabiiy resurslarni tejash bilan bir qatorda atmosferaga issiqxona gazlari chiqishining oldini olish imkonini beradi.

Yaqin yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini umumiy energiya balansida 40 foizga yetkazilishi mamlakatimiz aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashni yanada yaxshilanishiga imkoniyat yaratish bilan bir qatorda mintaqada energetik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, balki mintaqaning iqlim o'zgarishlariga moslashish imkonini berish barobarida, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishi, pirovardida xalqimiz farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Iqlim o'zgarishi O'zbekistonda ham qator salbiy oqibatlarga olib kelyapti:

- suv resurslari taqchilligining kuchayishi;
- o'rtacha haroratning oshishi;
- yog'ingarchiliklarning notekis;
- qishloq xo'jaligida yetishtirish uchun maqbul ekinlar tarkibi butunlay o'zgarishi;
- harorat rejimi kuchayishi natijasida aholi salomatligi bilan bog'liq muammolar ko'payishi;
- o'simliklar va hayvonlarning aksariyat turlari yashaydigan areallar qayta taqsimlanishi, demak, ekologik jarayonlar, beriladigan mahsulotlar va bajariladigan funksiyalar tubdan o'zgarishi;
- saholashish jarayonlarining kuchayishi, demak, yashash va xo'jalik yuritish mumkin bo'lgan erlar kamayishi;
- iqtisodiyot sektorlari ta'sirining to'liq qayta taqsimlanishi va boshqalar.

Shuningdek, iqlim ko'rsatkichlarining yil sayin tobora yomonlashib borayotganini insoniyat yerdan shavqatsizlarcha foydalanishni davom ettirayotgani bilan bog'lash mumkin. Ko'pchilik davlatlar tomonidan bu jarayon xavfsizlikka qarshi eng katta tahdid sifatida ko'rilmogda. Dunyo bo'ylab sodir bo'lgan ayanchli hodisalar ekologik xavfsizlikni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini ishlab chiqishga yetarli darajada kuchli turtki berishi kerak [4].

Adabiyotlar:

1. Асадуллаев А.Н. Экологик осойишталикни таъминлашнинг геоэкологик асослари. Научно-практической конференции с международным участием на тему: “Проблемы экологии и экологического образования” сборник тезисов 11-12 ноября 2022 года. –С. 27-28.
2. Ҳайитов Ё.Қ., Шарипов А.Э., Суғорма ерларнинг экомелиоратив жиҳатлари ва ечимлари (Бухоро вилояти мисолида). Орол бўйи ҳудудларида ноқулай экологик омилларнинг салбий таъсирларини юмшатиш масалалари мавзусидаги Республика миқёсида илмий-амалий анжуман. Бухоро. 2020. –Б.15-17.
3. Asadullayev A.N. Cooperation of family and educational institutions in ecological education of children. II-я Международная научно-практическая конференция «Насыири укулары» – «Насыровские чтения» ТОМ 2 г. Казань 16-17 февраля 2023 г. -Р. 18-19.
4. Asadullayev A.N. Iqlim o'zgarishining sabablari va oqibatlari. Iqlim o'zgarishi sharoitida cho'l-voha ekosistemi: muammolar va yechimlar mavzusidagi xalqaro simpozium materiallari. Buxoro 2023. –Б. 57-60.